
FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



1/2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH

scientific-practical and methodological journal



№ 1/2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov H.N.– psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov N.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

XIX ASR IKKINCHI YARMIDA ZARAFSHON OKRUGIDA SOLIQ MUNOSABATLARI VA ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI

Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, v.b. dotsent
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston general-gubernatorligi hududida, xususan Zarafshon okrugida soliq munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati doirasida tahlil qilinadi. Imperiya tomonidan joriy etilgan fiskal boshqaruv tizimi mahalliy soliq an’analarini markazlashtirish, davlat byudjetini shakllantirish hamda iqtisodiy resurslarni nazorat ostiga olishga qaratilgan edi. Tadqiqotda xiroj, zakot, tanobona kabi an’anaviy soliqlarning saqlanib qolishi, keyinchalik esa oklad tizimi orqali qat’iy soliq mexanizmlarining joriy etilishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Turkiston general-gubernatorligi, Zarafshon okrugi, soliq tizimi, fiskal siyosat, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik boshqaruvi, иқтисодий муносабатлар, маҳаллий аҳоли мажбуриятлари.

Аннотатsiя: В данной статье анализируется формирование и развитие налоговых отношений на территории Туркестанского генерал-губернаторства во второй половине XIX века, в частности в Зарафшанском округе, в рамках колониальной политики Российской империи. Введённая империей система фискального управления была направлена на централизатsiю местных налоговых традиций, формирование государственного бюджета, а также установление контроля над экономическими ресурсами региона. В исследовании рассматривается сохранение традиционных налогов, таких как харадж, закят и танобона, а также последующее внедрение жёстких механизмов налогообложения посредством окладной системы.

Ключевые слова: Туркестанское генерал-губернаторство, Зарафшанский округ, налоговая система, фискальная политика, Российская империя, колониальное управление, социально-экономические отношения, налоговые повинности.

Abstract: This article analyzes the formation and development of tax relations in the Turkestan Governor-Generalship during the second half of the nineteenth century, particularly in the Zarafshan District, within the framework of

the colonial policy of the Russian Empire. The fiscal administration system introduced by the empire was aimed at centralizing local tax traditions, forming the state budget, and establishing control over the region's economic resources. The study examines the preservation of traditional taxes such as kharaj, zakat, and tanobona, as well as the subsequent implementation of strict taxation mechanisms through the fixed "oklad" system.

Keywords: Turkestan Governor-Generalship, Zarafshan District, taxation system, fiscal policy, Russian Empire, colonial administration, socio-economic relations, tax obligations.

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Rossiya imperiyasining Turkiston hududlarini bosib olishi natijasida mintaqada mustamlakachilik boshqaruv tizimi shakllantirildi. 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi bilan o‘lka imperiyaning harbiy-ma’muriy va iqtisodiy manfaatlariga bo‘ysundirildi. Bu jarayon mahalliy boshqaruv, yer egaligi, savdo va soliq tizimining tubdan o‘zgarishiga olib keldi.

Rossiya imperiyasi Turkistonni iqtisodiy resurslar manbai sifatida ko‘rib, davlat xazinasiga daromad keltiruvchi markazlashgan soliq tizimini joriy etdi. Soliq siyosati nafaqat iqtisodiy manfaatlarni ta’minlash, balki mahalliy aholini ma’muriy jihatdan nazorat qilish vositasi ham bo‘lib xizmat qildi. Natijada xiroj, tanob va zakot kabi an’anaviy soliqlar imperiya manfaatlariga moslashtirildi. Zarafshon okrugi Turkiston general-gubernatorligining iqtisodiy jihatdan muhim hududlaridan biri bo‘lib, Samarqand va Kattaqo‘rg‘on kabi markazlarni o‘z ichiga olgan. Shu sababli hududda soliq yig‘ish, yerlarni o‘lchash va fiskal nazoratni kuchaytirishga qaratilgan maxsus boshqaruv tizimi shakllantirildi. Ayniqsa, 1870-yillardan boshlab mahalliy soliq yig‘uvchilar o‘rniga imperiya amaldorlarining tayinlanishi nazoratning markazlashuviga olib keldi.

Mazkur maqolada XIX asr ikkinchi yarmida Zarafshon okrugida shakllangan soliq munosabatlari, Rossiya imperiyasining fiskal siyosati hamda uning mahalliy aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta’siri tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Samarqand viloyati iqtisodiy hayotiga oid adabiyotlarni shartli ravishda mustamlaka davri, sovet davri, mustaqillik davri va xorijiy tadqiqotlarga ajratish mumkin. Mustamlaka davrida yaratilgan tadqiqotlarda Samarqand viloyati va Zarafshon vohasi aholisi turmush tarzi, ijtimoiy holati,

qishloq xo‘jaligi, yer-suv munosabatlari hamda sug‘orish tizimi masalalari yoritilgan. Bu borada V.P. Nalivkin, A.D. Grebenkin, A.L. Xoroshxin, V.V. Radlov, N.P. Ostroumov, G. Arandarenko va boshqa mualliflarning asarlari muhim manba hisoblanadi. Mazkur tadqiqotlarda hududning qishloq xo‘jaligi tarmoqlari, dehqonchilik texnikasi, aholi mashg‘ulotlari va iqtisodiy hayoti haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Sovet davri tadqiqotlari hukmron mafkura ta’sirida yozilgan bo‘lsa-da, ular viloyat tarixini o‘rganishda muhim ilmiy manba sifatida ahamiyatga ega. Xususan, V. Lavrentyev, I.I. Umnyakov, A.M. Aminov va A.R. Muhammadjonovlarning ishlarida Zarafshon vodiysining yer-suv munosabatlari, sug‘orish tizimi hamda mustamlaka davri iqtisodiy jarayonlari tahlil qilingan. Ayniqsa, A.R. Muhammadjonov tomonidan Samarqand viloyatining sug‘orish tizimi va suv taqsimoti masalalari arxiv hujjatlari asosida yoritilgan.

Mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy tadqiqotlarda mavzu arxiv materiallari va mahalliy manbalar asosida xolis va obyektiv yoritila boshlandi. N. Abduraximova, G. Rustamova, H. Ziyoyev, D. Ziyoyeva, D.A. Alimova, Y.F. Buryakov hamda boshqa tadqiqotchilar ishlarida Turkiston o‘lkasi va Samarqand viloyatining mustamlaka davri iqtisodiy hayoti keng tahlil qilingan. So‘nggi yillarda A. Kuraxmedov, Sh. Murodova, G. Normurodova, O. Irisqulov, T. Ahmedov va J. Bo‘tayevlarning tadqiqotlarida Zarafshon okrugi hamda Samarqand viloyatining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga oid yangi ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

Mazkur maqolani yoritishda tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimlilik va xolislik tamoyillariga asoslanildi. Tadqiqot jarayonida arxiv hujjatlari, statistik ma’lumotlar, rasmiy hisobotlar, davriy nashrlar va ilmiy adabiyotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida hududda mustamlakachilik boshqaruv tizimi shakllantirildi. Bu jarayon siyosiy va ma’muriy islohotlar bilan bir qatorda iqtisodiy hayot, xususan, soliq munosabatlari tizimida ham tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilishi bilan mahalliy boshqaruv tizimlari imperiya ma’muriy apparatiga bo‘ysundirildi hamda soliq siyosatini markazlashtirishga qaratilgan yangi soliq mexanizmlari joriy qilindi. Ayniqsa, Zarafshon okrugi kabi strategik va iqtisodiy jihatdan muhim hududlarda soliq munosabatlarining shakllanishi va amaliyoti o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan.

Rossiya imperiyasi tomonidan 1868-yilda Davlat nazorat palatasi, 1869-yilda esa Davlat xazina palatasi tuzilib, davlat byudjetini shakllantirish, xazinaga tushadigan soliqlar, tushumlar va boshqa mablag‘larni hamda ulardan me’yoriy

foydalanishni nazorat qilish asosiy vazifa etib belgilandi [1]. Shu tariqa imperiya o‘lkada davlat byudjetini shakllantirish tizimini paydo qilgan.

Imperiya o‘lkani bosib olgan dastlabki davrlarda soliq yig‘ish ishlariga mas’ul qilib o‘z vakillarini tayinlagan. Xususan, okrug boshlig‘i general-mayor A. Abramovning 1870-yil 12-yanvardagi buyrug‘i bilan 5-Turkiston liniya bataloni podporuchigi Kibardin Samarqand bo‘limi zakot yig‘uvchilari boshlig‘i lavozimidan olinib, o‘rniga vaqtinchalik Samarqand bo‘limi kotibi knyaz Urusov tayinlangan va ish hajmi ko‘pligi uchun 1870-yil 27-fevraldagi 2-sonli buyrug‘i bilan unga yordamchi sifatida 9-Turkiston liniya bataloni kichik ofitser unvonidagi harbiysi Korlovskiy tayinlangan [2]. Kattaqo‘rg‘on bo‘limi zakot yig‘uvchisi lavozimiga esa devonxona ish yurituvchisi Xoroshxin 1870-yil 17-fevraldagi buyruq bilan vaqtinchalik tayinlangan [2]. Soliq yig‘ib olish ishlarida mahalliy aholi bilan muloqot qilishda tarjimonlar xizmatidan foydalanilgan. Imperiya ma’murlari dastlab amirlik davridagi soliqlarni saqlab turdi. 1868-yilda okrugdagi soliqlar yoki daromadlar ikki kategoriyaga bo‘lingan: a) asosiy soliqlar: 1) xiroj, 2) tanob va 3) zakot; b) favqulodda hollarda yig‘iladigan soliqlar [3].

Xiroj yer solig‘i bo‘lib, dehqonlar yetishtirgan mahsulotlari bilan to‘lashgan va uning aniq miqdori belgilanmagan. U hosilning 1/3, 1/5 va 1/10 miqdorida to‘langan. Okrugda to‘lanadigan xiroj solig‘i har bir hududda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan to‘langan. Misol uchun, muayyan joyga tegishli mahalliy mahsulotlar: paxta, sholi, jo‘xori, tariq, kunjut, maxsar, indov va mosh [3]. Bundan tashqari, okrugning Samarqand bo‘limi Chelak tumanida xiroj solig‘i poliz mahsulotlari: piyoz, sabzi, oshqovoq va boshqalar bilan to‘langan.

1868-yilda okrugga tashrif buyurgan V. Radlov o‘z asarida amirlik davridagi boshqaruv tizimi va soliqlariga to‘xtalib o‘tgan. Asarda: “Majburiyatlar og‘ir, adolatsiz va noto‘g‘ri taqsimlangan, chunki ular mulkdan emas, ishchi kuchidan undiriladi. Viloyatni ishg‘ol qilgan mutasaddilar o‘lkaning soliq va iqtisodiy aloqalari bo‘yicha tez orada to‘g‘ri va aniq ko‘rsatmalar beradi, deb umid qilaman”, - deb amirlik davrida shakllangan soliq tizimini tanqid qilgan [4].

Podsho ma’muriyati vaziyatga qarab dastlabki vaqtlarda xiroj miqdorini o‘zgartirib turgan holatlar ham kuzatilgan. Xususan, general-ad’yutant fon Kaufman 1873-yilda Xivaga yurish paytida siyosiy sabablarga ko‘ra xiroj miqdorini 1/10 qismga, ya’ni ilgari Sirdaryo viloyati uchun qabul qilingan hajmga tushirgan [5]. Bunda imperiya Xivaga yurish paytida okrug aholisi xayrixohligiga erishib, hududda tinchlikni saqlab turishga harakat qilganligini payqash mumkin.

1868-1870-yillardagi uch yillikda soliqlarni hisoblash va yig‘ish tartibi Buxoro amirligi davridagidek bo‘lib, 1871-yildan mahalliy aholi orasidan tanlangan

yig‘uvchilar olib tashlangan va imperiya amaldorlari rahbarligida harakat qiluvchi nazorat komissiyalari tashkil etilgan. Komissiyaning vazifasiga har yili ekin maydonlarini tanob usulida o‘lchash (mahalliy o‘lchovchilar yordamida) hamda hosil va mahsulotning o‘rtacha narxini aniqlash kirgan [5].

Zarafshon okrugi boshlig‘i hududlardan hosil miqdorlari va olingan soliq tushumlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar olib turgan. Xususan, okrug boshlig‘ining 1869-yilgi bildirishnomasida Kattaqo‘rg‘on bo‘limi boshlig‘i podpolkovnik Karaganovning 1869-yildagi bildirishnomasida 1868-yilgi hosil miqdorlari haqidagi hisoboti qoniqarsizligi, statistik jihatdan ishlov berish shartligi, bozor zakotlaridan olingan 668 rublning qaysi bozorlardan qancha miqdorda olinganligi batafsil berilmaganligi aytib o‘tilgan [6].

Zarafshon ma’muriyatiga yer mulkining hajmi va turi, hosildorligi to‘g‘risida ma’lumot berib kelgan xiroj tizimi 1876-yilda yer solig‘i bilan almashtirildi. Biroq podsho ma’muriyati uni sug‘orilmaydigan yerlar uchun qo‘llash imkoniyatini topolmay, ularni oldingi yig‘im-terimdan xiroj to‘lash tizimida qoldirishni afzal ko‘rgan [7]. Bunga quyidagilar sabab bo‘lgan: podsho ma’muriyati tomonidan yer tizimi joriy etilmaganligi va barcha yerlar chegarasi belgilab olinmaganligi tufayli sug‘orilmaydigan yerlarni qishloq aholisiga qonunan topshirmaganligi; sug‘orilmaydigan yerlarda har yili ekin ekilmasligi va lalmi ekinlardan (bug‘doy, arpa, zig‘ir) hosil olish nihoyatda o‘zgaruvchan bo‘lganligi; doimiy daromad mavjud bo‘lmaganligi sababli aholiga yer solig‘i belgilashning xavfliligi, ya’ni ketma-ket ikki yil hosil bo‘lmagan yillarda aholi uni to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lmasligi. Shularni hisobga olib, hosil yaxshi bo‘lgan yillarda sug‘orilmaydigan yerlardan sezilarli daromadni yo‘qotmaslik maqsadida bu yerlar uchun oklad tizimi bilan birgalikda har bir ekinning yillik tanob hisoblarini tuzib, shunday xarakterdagi xiroj tizimi qoldirilgan.

1886-yilda “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra barcha yerlar (vaqf yerlaridan tashqari) davlatga tegishli deb e’lon qilindi va ular azaldan ijara asosida foydalanib kelingan jamoa a’zolariga berildi. Barcha yerlar soliqqa tortilgan. Podsho ma’muriyati tomonidan shu vaqtgacha aholidan olib kelingan tanobona va xiroj soliqlari o‘rniga “oklad tizimi” (qat’iy belgilangan okladlar bilan soliqqa tortish tizimi) joriy etildi. Lekin podsho ma’muriyati soliqlarni belgilashda yerning suv bilan ta’minlanganlik darajasini hisobga olmagan. Bunday nohaqlik aholini talanishi va qashshoqlashuviga olib kelib, norozilikni kuchaytirib bordi.

XIX asr ikkinchi yarmida Turkiston general-gubernatorligi hududida, jumladan Zarafshon okrugida soliq munosabatlari Rossiya imperiyasining

mustamlakachilik siyosati doirasida shakllandi va rivojlandi. Imperiya tomonidan joriy etilgan yangi fiskal boshqaruv tizimi mahalliy soliq an’analarini sezilarli darajada o‘zgartirib, ularni markazlashgan nazorat ostiga oldi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Zarafshon okrugida soliq tizimi nafaqat iqtisodiy resurslarni undirish vositasi, balki mahalliy aholini ma’muriy jihatdan bo‘ysundirishning muhim mexanizmi ham bo‘lgan.

XULOSA

Xullas, XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston general-gubernatorligi hududida, xususan Zarafshon okrugida shakllangan soliq tizimi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishdagi muhim vositalardan biri bo‘ldi. Imperiya ma’muriyati tomonidan joriy etilgan fiskal boshqaruv tizimi mahalliy iqtisodiy munosabatlarni markazlashgan nazorat ostiga olib, hudud resurslarini imperiya manfaatlariga yo‘naltirishga xizmat qildi. Dastlab podsho ma’muriyati mahalliy aholining noroziligini oldini olish maqsadida xiroj, tanob va zakot kabi an’anaviy soliqlarni saqlab qolgan bo‘lsa-da, keyinchalik ularni imperiya fiskal tizimiga moslashtirdi. 1870-yillardan boshlab soliq yig‘ish jarayonining markazlashtirilishi va nazorat komissiyalarining tashkil etilishi iqtisodiy nazoratni yanada kuchaytirdi.

1886-yildagi “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom asosida barcha yerlarning davlat mulki deb e’lon qilinishi va “oklad tizimi”ning joriy etilishi aholi iqtisodiy ahvoliga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada soliq yukining ortishi dehqonlarning qashshoqlashuvi va ijtimoiy norozilikning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Umuman, Zarafshon okrugidagi soliq munosabatlari Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining iqtisodiy mohiyatini ochib beruvchi muhim tarixiy jarayon bo‘lib, uni o‘rganish Turkiston o‘lkasi tarixini chuqurroq anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Oblomurodov N., Tolipov F. O‘zbekistonda soliqlar tarixi. - Toshkent, 2009. - B. 101.

2. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA). I-5-fond, 1-ro‘yxat, 18-ish, 7-24-varaqlar.

3. Хорошхин А.П. Сборник статей, касающихся Туркестанского края. - СПб., 1876. - С. 165.

4. Радлов В.В. Средняя Зарафшанская долина // Записки Императорского Русского географического общества по отделению этнографии. - Т. VI. - СПб., 1880. - С. 92.

5. Налоги и пошлины // Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К.К. Паленным. - СПб., 1910. - С. 50.

6. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA). I-5-fond, 1-ro‘yxat, 11-ish, 32-varaq.

7. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA). I-5-fond, 1-ro‘yxat, 11-ish, 33-38-varaqlar.

8. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA). I-5-fond, 1-ro‘yxat, 3558-ish, 25-varaq.

MUNDARIJA

1.	ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ СОПРОВОЖДЕНИИ ПОДРОСТКОВ: ДИАГНОСТИЧЕСКИЙ И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ Алимова Елена Геннадьевна	4
2.	G. BARDIYERNING TOLERANTLIK UCH KOMPLEKSLI MODELI TAVSIFI Bafayev Muxiddin Muxammadovich	14
3.	MAKTAB VA SINF MUHITINING KONTEKSTIDA O‘QUVCHILARNING ICHKI NAZORAT LOKUSINING RIVOJLANISH Celal Alğan	19
4.	OILADA OTA-ONA FARZAND MUNOSABATLARINI MILLIY TARBIY ASOSIDA TASHKIL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI Jabborov Xazrat Xusenovich	27
5.	LIDERLIK PSIXOLOGIYA FANINING TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA Jumanazarov Bekzod Begnazarovich	37
6.	SHAXS KOGNITIV ONTOGENEZI VA AVLODLAR NAZARIYASI L.S. Tursunov	45
7.	SOCIAL-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING HR MANAGERS PROFESSIONAL COMPETENCIES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION M.M. Abdukarimov	53
8.	YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA SUITSIDAL XAVF DARAJASINI PASAYTIRISHDA PSIXOPROFILAKTIK VA PSIXOKORREKSION METODLARNING EKSPERIMENTAL TAHLILI Qodirova Shoxidabonu Sobirjon qizi	57
9.	OILAVIY QADRIYATLAR VA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR SHAKLLANISHI Rasulova Dildora Shuhratovna	65
10.	QARISH JARAYONINING PSIXOFIZIOLOGIK VA EPIGENETIK MEXANIZMLARI: NAZARIY TAHLIL VA AMALIY YONDASHUVLAR Umirov Shaxrizod O‘rol o‘g‘li	69
11.	PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF NEW MORAL VALUES IN STUDENTS Umirzakova Nargiza Ismailovna	74
12.	ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КРИМЕНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ Махмудова Д.А.	78

MUNDARIJA

13. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI
Ibragimova Gulsanam Nematovna 82

14. TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH O‘QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI
Jalilov Nodirjon Azamatovich 89

15. SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN TARBIYAVIY JARAYONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI
Karimova Barno Ergashevna 95

16. TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA KVALIMETRIK PARAMETRLARINI TAKOMILLASHTIRISH
Karimova M.M. 102

17. CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASI VA METODIK MAHORATI
Uzoqov A.A. 110

18. INNOVATSION TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING MA’NAVIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
Xabibullayeva Shaxlo Ulmesovna 116

19. ARAB DAVLATLARI TARIXSHUNOSLIGINI O‘QITISHNING METODIK ASOSLARI
Axmedov Sanjar Bektemirovich 122

20. XIX ASR IKKINCHI YARMIDA ZARAFSHON OKRUGIDA SOLIQ MUNOSABATLARI VA ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich 129

21. MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZMDA URUSH QATNASHCHILARINI E’ZOZLASH SIYOSATI
Ishchanova Oybika Farhod qizi 136

22. AFG‘ONISTONDA XX ASRNING 90-YILLARDA HOKIMYAT UCHUN KURASHDA ETNOSIYOSIY OMILNING ROLI
Sharipov Shohruz Faxriddin o‘g‘li 143

23. JADIDLAR QARASHLARIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI MASALASI
Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o‘g‘li 151

24. RAHBAR NUTQINING KOMMUNIKATIV VA NUTQIY TA’SIRCHANLIK MUAMMOLARI
Xalilova Ruxsora Raupovna 158

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA